

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBIR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI**

Abdurahmon Nuriddin Abdurahmon Jomiy

MAVZUSIDA

MA'RUZA MATN

MUSIQA TA'LIMI 5111100



Bajaruvchi:

M.Karimova

ANDIJON-2015

Abdurahmon Nuriddin Abdurahmon Jomiy

Reja:

- 1. Abdurahmon Jomiynig musiqiy ilmi .**
- 2. Jomiyning XV asr madaniyati tarixidagi o`rni.**
- 3. Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy" asari.**

Abdurahmon Nuriddin Abdurahmon Jomiy 1414 yilning 7 noyabrida Xurosonning Jom shahri (1414-1492) da tug`ildi. Uning otasi Nizomiddin Ahmad yirik ruhoniyyat shayxulislom edi. Jomiyning go`daklik chog`ida oila hirotga ko`chib boradi va o`sha yerda istiqomat qilib Abdurahmon Jomiy o`qishga juda erta kirishadi tez orada xat savodini chiqarib oladi va turli xil va havas bilan o`rgana boshlaydi. Jomiy maktab keyin hirotning Dilkash madrasasida ulkan adabiyotshunos olim Mavlono Jo`nayd qo`lida saboq olib boshlaydi. Jomiy xususan O`rta Osiyoning mashhur filologi Sa`daddin Mas`ud Taftozoniyni (1322-1389) «Muxtasar al-maonn» va «Mutavval» kitoblarini katta ishtiyoq bilan o`qiydi. Jomiy Taftozoniyni shogirdi Jojarmiy va mashhur mudarris Aloiddin Aliy Samarqandiydan ta`lim oladi. U hirot tahsili bilan qanoatlanib qolmay, bilimni oshirish maqsadida Samarqandga keladi, Ulug`bek madrasasida o`qiydi, qozizoda Rumiy va mashhur olimlarning mashg`ulotlariga qatnaydi. U Bahovaddin Naqshbandning izdoshlari bo`lgan Shayx Sa`daddin Koshg`ariyga (1456 yilda vafot etgan) murid tushib, tasavvuf bo`yicha ta`lim oladi.

Tasavvufning nazariy masalalari bilan, ay-Shayx Muhyiddin ibn al-Arabiyy (1165-1240) kabi tasavvuf faylasuflarining asarlari bilan shug`ullanadi, tarkidunyochilik va badbinlikni rad etadi, zohidlarga qarshi shafqatsiz kurashadi.

Uning shogirdlaridan bo'lgan AbdulG'afur Loriy «Ustoz Jomiy o'z vaqtlarini ko'proq foydali ishlarga sarf qilarlar edilar va qolgan vaqtlarini kishilar tarbiyasi xalq xizmatiga bag'ishlar» deydi Kitob Jomiyning yaqin do'sti, ajralmas qamrog'i, mutolaa va ijodiyot esa uning doimiy mashg'uloti edi.

Jomiy bir qator badiiy, ilmiy va diniy-tasavvufiy asarlar yaratadi, hirot va boshqa shaharlarning ko'pgina ilm va san'at- adabiyot aqlariga ustoz hamda ilmiy va adabiy tortishuvlarning hakami (arbitri) bo'ladi. Uning obro' e'tibori kundan-kunga oshib boradi. Temuriy hukmdorlar, Husayn Boyqaro, shuningdek atrof o'lka va viloyatlarning hokimlari Jomiyi hurmat qilib, uni in'omlar bilan tag'dirlaydilar. Jomiy daromadlarini ko'proq obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot ahillariga sarf qiladi.

Masalan, u hirot yaqinidagi Xiyobonda ikki madrasa va bir xonaqoq quradi, Jomda bir masjid bino etadi, yer sotib olib masjidga vaqf qilib beradi. «Agar ro'zg'origa muhtoj bo'lgan kishini ko'rsalar,- deb yozadi Abdulg'afur Loriy,- darhol unga yordam berar. Biror ortiqcha narsalari bo'lsa, yo'qsillarga in'om qilar edilar». Jomiyning o'zi esa juda sodda va kamtarona hayot kechirgan. (Uning kamtarona hayoti va fazilatlari zamondoshlarining asarlarida hikoya qilib qoldirilgan.)

1472 yilning kuzida Jomiy Makkaga jo'naydi. U haj qilish bilan birga, Sharq o'lkalarida bo'lish, u yerlarning olim va shoirlari bilan tanishish, g'oyibona do'stlarini ko'rish umidida edi. Safar bir yilu 5 oy davom etadi.

Jomiy safardan qaytib kelganidan keyin ijodiy ishlarini qizg'in davom ettiradi, yangi-yangi asarlar yaratadi, ko'p shogirdlar yetishtiradi, shuhrati oshib boradi.

Qardosh tojik xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Nuriddin Abdurahmon Jomiy 1492 yilning 8 noyabrida vafot etdi. Uning o'limi ilm-fan, san'at va adabiyot uchun juda katta yo'qotish bo'ldi. Butun hirot qattiq motam tutdi. Yaqin va uzoq yerlardan ko'p kishi ta'ziyaga keldi. Jomiyning yagona o'qli Yusuf hali 15 yoshda edi. Jomiyning shogirdi, do'sti va hamkori Alisher Navoiy azadorlarga ham, motam marosimiga ham bir farzanddek bosh bo'ldi. Dafn

marosimida minglab kishi qatnashdi. Shoirlar motam ta'rixi va marsiyalar bitdilar.

Jomiy juda sermaqsul olim va yozuvchidir. U 50 yil chamasi davom etgan ijodiy faoliyatida ko'p badiiy, falsafiy, ilmiy va diniy-tasavvufiy asarlar yaratdi. Bu asarlarning turli davrlarga mansub bo'lgan qo'lyozma nusxalari va nashrlari ko'pdir. Uning ayrim avtograflari ham saqlanib qolgan. Ularning ayrim na'munalari, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Jomiy asarlarining boshqa nodir qo'lyozmalari XVI asrga mansubdir. Bulardan eng muhimi XVI asr boshlarida ko'chirilgan va Toshkentda Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan «Kulliyoti Jomiy» bo'lib, u 37 asarni o'z ichiga oladi. Jomiy asarlari O'rta Osiyo, Eron, Hindiston va boshqa joylarda bir necha bor nashr qilingan.

Jomiyning XV asr madaniyati tarixidagi o'rni ayniqsa uning badiiy asarlari bilan belgilanadi. Jomiy buyuk shoir va adibdir. U XV asr adabiyotida mavjud bo'lgan deyarli barcha janrlarda asarlar yaratdi, o'zidan oldingi ulug' so'z san'atkorlarining traditsiyalarini davom ettirdi va rivojlantirdi, badiiy yuksak asarlari bilan dunyo adabiyoti xazinasiga o'lmas obidalar qo'shdi.

Lirika sohasida Sa'diy, hofiz va Kamol Xujandiylar bilan bir qatorda turgan Jomiy uch devon tuzib qoldirdi. Jomiy Mashhaddan qaytgan Navoiyga uchinchi devonining o'z avtografini hadya qilgan edi. Navoiy Jomiyga, Amir Xisrav Dehlaviy o'z devonlarining har biriga (jami besh devon) alohida-alohida nom bergani kabi, bu uch devonni ham maxsus nomlar bilan atashni maslahat beradi. Jomiy Navoiyning bu maslaqatini mamnuniyat bilan qabul qiladi va o'z devonlarini quyidagicha ataydi:

1. «Fotihat-ush-shabob»-«Yigitlik ibtidosi» (1479 yilda tuzilgan);
2. «Vasat-ul-iqd» - «O'rtacha marvarid shodasi» (1489 yilda tuzilgan);
3. «Xotimat-ul-hayot»-«hayotning xotimasi» (1491 yilda tuzilgan).

Bu devonlar lirik turning g'azal, ruboiy, qit'a, tarji'band, tarkibband, marsiya, hasida va boshqa janrlarida yozilgan she'rlardan iborat.

Abdurahmon Jomiy boshqa ilimlar bilan bir qatorda musiqa ilmi

bilan ham shug'ullangan. Intervallar nazariyasi o'tmishda Sharq atroflicha o'rganib kelingan. Lekin eski zamonaviy tushunchalar o'rtasida katta farq bor. Masalan, nazariyada zul arba'jt'nt aniq maxraj uchga nisbati, uch kasr to'rt tushunilgan bo'lsa, u (kelishilgan) taxminan qabul qilingan tovush munosabati qilib olinadi. Shunga binoan, oldingi musiqashunoslar tomonidan har bir maqomning aniq raqamlar bilan belgilangan tovush ishlab chiqilgan. Ammo riyoziy uslubda ifodalangan bo'dlar doim ham mutloq birlik bo'lavermasligini e'tirof etish lozim. Bu fikr Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy"sida ravshan bayon etilgan: "Shuni bilmoq kerakki, vujudga keltirilgan bu taqsimot emas, balki taqribdir. Zotan, sohibi amal barmoqi bu: past yoki baland qo'yilsa, nag'ma eshitilishida sezilarli farq bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, agar bu taqsimda andak tafovutlar bo'lsa, anikugik nuqtai nazaridan muhokama, ta'na va e'tirozlar o'rinsizdir.

Intervallar nazariyasi o'tmishda Sharq musiqashunoslari tomonidan atroflicha o'rganib kelingan. Lekin eski musiqashunoslik tili bilan zamonaviy tushunchalar o'rtasida katta farq bor. Forobiy, Ibn Sino asarlarida bo'dlar raqam va nisbatlar vositasida ifodalangan bo'lsa, endilikda ular so'z bilan belgilangan birliklar tarzida ishlatiladi. Masalan, nazariyada zul arba' deganda aniq maxraj miqdori (to'rtning uchga nisbati, uch kasr to'rt) tushunilgan bo'lsa, amalda u (kelishilgan) taxminan qabul qilingan tovush munosabati qilib olinadi. Shunga binoan, oldingi musiqashunoslar tomonidan har bir maqomning aniq raqamlar bilan belgilangan tovush jadvali ishlab chiqilgan. Ammo riyoziy uslubda ifodalangan bo'dlar har doim ham mutloq birlik bo'lavermasligini e'tirof etish lozim. Bu fikr Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy"sida ravshan bayon etilgan: . Shu bilan birga, o'n yetti nag'ma maxrajlarini aniqlashning bu fanda so'nggi mezoni tinglashdir.

A.Jomiyning "Musika risolasi" debochasida hamdu sano ruhidagi g'azal Saraxborlardan oldin usulsiz "katta ashula"ga o'xshatib aytiladigan lavhalarga aynan mos kelishligi e'tirof etildi.

A.Jomiy risolasidagi she'r mazmunan musiqiyni ulug'lash, uning ilohiy

sifatlarini madx etishga qaratilgan qiska, lekin o`ta ma`noli baytlar sozandalar o`z ishiga kirishish (kuy chalish, ashula aytish)dan oldin aytadigan duolarni eslatadi va bu o`rinda Saraxborlarning ibodatimiz ruxiyatiga mos tushishi xaqidagi ma`lumotlarni berib o`tgan. Risola musiqashunoslik tarixida juda katta ahamiyatga ega.

Tayanch tushunchalar:

1. **.A.Jomiy** - Taniqli olim va musiqachi .
2. **Mavlono Jo`nayd** - Jomiyning ustози
3. **«Kulliyoti Jomiy»** - Jomiyning 37 asarni o`z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. Jomiyning qanday asarlar yaratgan ?
2. Jomiyning XV asr madaniyati tarixidagi o`rni ?
3. Jomiy boshqa ilimlar bilan bir qatorda musiqa ilmini qaysi jixatlari bilan
Shug`ullangan ?
4. Jomiyning "Musiqa risolasi" debochasi qanday boshlangan ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.YE.Solomonova. O`zbek musiqasi tarixi T.1981.y.
2. I.Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.1963.y.
3. O.Matyaqubov Og`zaki an`anadagi professional musiqaga kirish T.1983.y
4. O.Matyaqubov Maqomot T.2004.y.
5. N.Shadmonov Risola-yi musiqiy T.1997.y